

Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'i, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisiga huquqni o'tkazish to'g'risidagi shartnomani va ulardan foydalanish uchun lisenziya shartnomalarini, integral mikrosxemalar topologiyalariga to'liq yoki qisman huquq o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni, barcha mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish va elektron-hisoblash mashinalari, ma'lumotlar bazasi uchun dasturga bo'lgan mulkiy huquqlarni o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish

QOIDALARI

O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi direktorining 2005 yil 11 maydagi 48-son buyrug'i bilan TASDIQLANGAN, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yilning 17 iyunida 1481-son bilan RO'YXATDAN O'TKAZILGAN

Mazkur Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'i, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisiga huquqni o'tkazish to'g'risidagi shartnomani va ulardan foydalanish uchun lisenziya shartnomalarini, integral mikrosxemalar topologiyalariga to'liq yoki qisman huquq o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni, barcha mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish va elektron-hisoblash mashinalari, ma'lumotlar bazasi uchun dasturga bo'lgan mulkiy huquqlarni o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish qoidalarini (matnda bundan keyin Qoidalar deb yuritiladi) tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisiga O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risidagi", "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risidagi", "Seleksiya yutuqlari to'g'risidagi", "Elektron hisoblash mashinalari va ma'lumotlar bazalari uchun dasturlarning huquqiy muhofazasi to'g'risidagi", "Integral mikrosxemalar topologiyalari huquqiy muhofazasi to'g'risidagi" Qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasida (matnda bundan keyin Patent idorasi deb yuritiladi) quyidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilaydi:

ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'iga huquqni o'tkazish to'g'risidagi shartnomani va Ixtirolar davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan ixtirodan, Foydali modellar davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan foydali modeldan, Sanoat namunalari davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan sanoat namunasi, Seleksiya yutuqlari davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan seleksiya yutug'idan foydalanishga lisenziya shartnomasi;

tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisiga (matnda bundan keyin tovar belgisi deb yuritiladi) huquqni o'tkazish to'g'risidagi shartnoma va Tovar belgilari davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisidan yoki ro'yxatdan o'tkazilmasdan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq muhofazalanadigan tovar belgisidan foydalanishga lisenziya shartnomasi;

integral mikrosxemalar topologiyalari davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan integral mikrosxemalar topologiyasiga huquqni to'liq yoki qisman o'tkazish to'g'risidagi shartnoma;

Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar davlat reestrda va Ma'lumotlar bazalari davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan elektron-hisoblash mashinalari uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasiga bo'lgan barcha mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazish va mulkiy huquqlarni o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar.

Qisqartirishlar ro'yxati

Shartnoma – ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'i, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisiga huquqni o'tkazish to'g'risidagi shartnomani va ulardan foydalanish uchun lisenziya shartnomalarini, integral mikrosxemalar topologiyalariga to'liq yoki qisman huquq o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni, barcha mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish va elektron-hisoblash mashinalari, ma'lumotlar bazasi uchun dasturga bo'lgan mulkiy huquqlarni o'tkazish to'g'risidagi shartnoma.

Lisenziya shartnomasi – ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'i, tovar belgisidan foydalanish uchun huquq berish to'g'risidagi shartnoma.

Sublisenziya shartnomasi – lisenziat tomonidan ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'i, tovar belgisidan foydalanish uchun boshqa shaxsga huquq berish to'g'risidagi shartnoma.

Lisenziar – ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'i, tovar belgisiga bo'lgan huquq egasi.

Lisenziat – ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'i, tovar belgisidan foydalanayotgan shaxs.

Muhofaza hujjati – patent, guvohnoma.

§ 1. Umumiy qoidalar

O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risidagi" Qonuni 11-moddasiga, O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risidagi" Qonuni 30-moddasiga, O'zbekiston Respublikasining "Seleksiya yutuqlari to'g'risidagi" Qonuni 38-moddasiga, O'zbekiston Respublikasining "Elektron hisoblash mashinalari va ma'lumotlar bazalari uchun dasturlarning huquqiy muhofazasi to'g'risidagi" Qonuni 9-moddasiga, O'zbekiston Respublikasining "Intenral mikrosxemalar topologiyalari huquqiy muhofazasi to'g'risidagi" Qonuni 15-moddasiga muvofiq quyidagi shartnomalar Patent idorasida ro'yxatdan o'tkaziladi:

ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'iga patentni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnoma;

ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'idan foydalanish uchun lisenziya shartnomasi (sublisenziya shartnomasi);

O'zbekiston Respublikasida muhofazalanadigan tovar belgisiga huquqni o'tkazish to'g'risidagi shartnoma;

O'zbekiston Respublikasida muhofazalanadigan tovar belgisidan foydalanishga lisenziya shartnomasi (sublisenziya shartnomasi). Jamoaviy tovar belgisi va undan foydalanishga bo'lgan huquq boshqa shaxslarga o'tkazilishi mumkin emas.

elektron-hisoblash mashinalari uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasiga bo'lgan barcha mulkiy huquqlarni to'liq yoki qisman o'tkazish to'g'risidagi shartnoma;

integral mikrosxemalar topologiyasiga bo'lgan huquqni to'liq yoki qisman o'tkazish.

2. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hisoblash mashinalari va ma'lumotlar bazalari uchun dasturlarning huquqiy muhofazasi to'g'risidagi" Qonuni 9-moddasiga muvofiq tomonlarning kelishuviga ko'ra Patent idorasida elektron-hisoblash mashinalari uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasiga bo'lgan mulkiy huquqlarni o'tkazish to'g'risidagi shartnoma ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin.

3. Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish va shuningdek, ro'yxatdan o'tkazilgan lisenziya shartnomasiga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan miqdorda patent boji to'lanadi.

4. Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish va shuningdek, ro'yxatdan o'tkazilgan lisenziya shartnomasiga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha ishlar patent egasi (huquq egasi) tomonidan mustaqil ravishda yoki vakolati ishonchnoma bilan tasdiqlangan vakil orqali amalga oshiriladi.

Qonunda belgilangan hollarda ariza Patent idorasida ro'yxatdan o'tgan patent vakillari (matnda bundan keyin patent vakili deb yuritiladi) orqali topshiriladi. Patent vakilining vakolati ishonchnoma bilan tasdiqlanadi.

§ 2. Arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni topshirish

5. Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish uchun Patent idorasiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

a) shartnomani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza.

Ariza ushbu Qoidalarga berilgan 1-ilovada keltirilgan shaklda, o'zbek yoki rus tilida bir nusxada topshiriladi. Xorijiy nomlar va korxonalarining nomlari o'zbek yoki rus transliterasiyasida ko'rsatiladi.

Ariza bitta shartnomaga oid bo'lishi lozim.

Agar patent egalari (huquq egalari) lisenziya berish yoki boshqa shaxsga huquq o'tkazishga roziligi taqdim etilgan boshqa hujjatda ko'rsatilmagan bo'lsa, ariza barcha patent egalari (huquq egalari) tomonidan imzolanadi.

Yuridik shaxs nomidan ariza korxonaga, tashkilot rahbari tomonidan yoki vakolat berilgan shaxs tomonidan uning lavozimi ko'rsatilgan holda imzolanadi. Imzo muhr bilan tasdiqlanadi.

Imzo chekuvchi shaxsning ismi-familiyasi ko'rsatilishi shart.

b) belgilangan tartibda tasdiqlangan shartnoma yoki shartnomadan ko'chirma, uch nusxada.

Shartnoma varaqlari tikilgan, raqamlangan bo'lishi kerak, unda tuzatilgan, o'chirilgan, ustidan yozilgan so'zlar va kelishilmagan tuzatishlar bo'lmasligi kerak.

Shartnomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

shartnoma tomonlarining nomlari;

shartnoma predmeti (shartnoma tuzilgan muhofaza hujjatining raqami (tovar belgisining xalqaro ro'yxatdan o'tkazilgan raqami);

o'tkazilayotgan huquq turi;

lisenziya shartnomasi bo'yicha o'tkazilayotgan huquq hajmi;

shartnomaning amal qilish hududi;

shartnomaning amal qilish muddati;

Mukofot miqdori (yoki bu masalada o'zaro kelishuv mavjudligini tasdiqlaydigan hujjat).

Tovar belgisiga oid shartnomada lisenziat tovarlarining sifati lisenziar tovarlarining sifidan past bo'lmasligi haqidagi shart va lisenziar ushbu shartning bajarilishini nazorat qilishi lozimligi haqidagi shart ko'rsatilgan bo'ladi;

v) muhofaza hujjati (dublikat) ning asl nusxasi;

Tovar belgisiga shartnomani ro'yxatdan o'tkazishda muhofaza hujjatini taqdim etish shart emas;

g) huquqiy vorislik yoki merosga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan hujjat (zarur bo'lganda);

d) vakillik qiluvchining vakolatini tasdiqlaydigan ishonchnoma;

e) shartnomani ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan miqdorda patent boji to'langanini yoki patent bojini to'lashdan ozod etish uchun asos mavjudligini tasdiqlaydigan hujjat.

Belgilangan miqdorda patent boji to'langanini yoki patent bojini to'lashdan ozod etish uchun asos mavjudligini tasdiqlaydigan hujjat taqdim etilmagan holda arizani ko'rib chiqish bo'yicha yuridik ahamiyatga molik amallar bajarilmaydi.

6. Sublisenziya shartnomasi ro'yxatdan o'tkazilganda lisenziya shartnomasining asl nusxasi yoki tegishli rasmiashtirilgan nusxasi taqdim etiladi.

7. Arizaga ilova qilingan hujjatlar o'zbek, rus yoki boshqa tilda topshirilishi mumkin. Agar hujjatlar boshqa tilda topshirilgan bo'lsa, o'zbek yoki rus tiliga tarjimasi ilova qilinadi.

8. Ariza va unga ilova qilingan hujjatlar Patent idorasiga bevosita toshirilishi yoki pochta orqali jo'natilishi mumkin.

§ 3. Shartnomani ko'rib chiqish va ro'yxatdan o'tkazish

9. Ariza va unga ilova qilingan hujjatlar kelib tushgan kundan o'n besh kunlik muddat ichida Patent idorasi barcha zarur hujjatlar mavjudligini va ularning ushbu Qoidalarda belgilangan talablarga muvofiqligini tekshiradi.

10. Zarur hujjatlar mavjud bo'lmagan holda yoki shartnomani ro'yxatdan o'tkazishga topshirilgan hujjatlar ushbu Qoidalarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan holda, yoxud shartnomada bir-biriga zid holatlar aniqlangan holda ariza topshirgan shaxsga bildirish xati yuboriladi. Ushbu bildirish xatida yetishmagan va/yoki tuzatilgan hujjatlarni taqdim etish va/yoki bildirish xati yuborilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida topshirilgan shartnomaga tegishli o'zgartirishlar yoki qo'shimchalarni taqdim etish taklif etiladi.

Bu holda arizani ko'rib chiqish muddatining o'tishi yetishmagan yoki tuzatilgan hujjatlarning oxirigisi kelib tushganga qadar to'xtatiladi.

11. Topshirilgan hujjatlar ushbu Qoidalarda keltirilgan talablarga muvofiq bo'lgan holda Patent idorasi shartnomani ro'yxatdan o'tkazadi va shartnoma ro'yxatdan o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlarni tegishli Davlat reestriga kiritadi. Bu holda arizada keltirilgan yozishmalar uchun manzilgohga ro'yxatdan o'tkazilgan raqami, ro'yxatdan o'tkazilgan sanasi ko'rsatilgan shartnomaning ikki nusxasi va ro'yxatdan o'tkazilganligi haqida belgi qo'yilgan muhofaza hujjati yuboriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaning bir nusxasi nazorat nusxasi bo'lib, Patent idorasida saqlanadi.

12. Topshirilgan hujjatlar ushbu Qoidalarda keltirilgan talablarga muvofiq bo'lmagan holda Patent idorasi shartnomani ro'yxatdan o'tkazishni rad etadi. Bu holda Patent idorasi ariza bergan shaxsga shartnomani ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida rad etish asoslarini keltirgan xolda bildirish xati yuboradi va arizadan tashqari taqdim etilgan hujjatlarni qaytaradi.

13. Shartnoma ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Patent idorasining rasmiy nashrida quyidagilarni ko'rsatgan holda chop etiladi:

shartnomaning ro'yxatdan o'tkazilgan raqami;

topshirilayotgan huquqlar hajmi;

shartnoma predmeti;

shartnoma tuzayotgan tomonlar;

shartnoma amal qilish hududi;

shartnoma amal qilish muddati.

§ 4. Ro'yxatdan o'tkazilgan lisenziya shartnomasiga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish

14. Ro'yxatdan o'tkazilgan lisenziya shartnomasidagi quyidagi ma'lumotlarga kiritilgan o'zgartirishlar ro'yxatdan o'tkazilishi lozim:

shartnoma tuzayotgan tomonlar;

shartnoma predmeti;

shartnoma amal qilish muddati;

shartnoma amal qilish hududi;

topshirilayotgan huquqlar hajmi.

15. Ro'yxatdan o'tkazilgan lisenziya shartnomasiga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza ushbu Qoidalarga berilgan 2-ilovada keltirilgan shaklda topshiriladi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

a) tegishli o'zgartirishlarni kiritish to'g'risidagi tomonlarning kelishuvini tasdiqlaydigan hujjat;

b) shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan miqdorda patent boji to'langanini yoki patent bojini to'lashdan ozod etish uchun asos mavjudligini tasdiqlaydigan hujjat.

v) muhofaza hujjati (dublikat) ning asl nusxasi.

Tovar belgisiga shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazishda muhofaza hujjatini taqdim etish shart emas.

16. Kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish ushbu Qoidalarning 9-12- bandlariga muvofiq amalga oshiriladi.

17. Shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Patent idorasining rasmiy nashrida chop etiladi.